XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASH
QARORI

2022 - yil 31 - dekabr VI-44-281-3-52-K/22 Paxtakor tuman hokimligi

Paxtakor tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda tuman hokimining 2022-yil 4-oktabrdagi 119-3-52-F/22-sonli farmoyishiga asosan Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra tuman hududining umumiy peremetri 272158 metr, tuman umumiy maydoni 37710,36 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Bog‘ishamol qishlog‘ining umumiy perimetri 37378 metr, umumiy maydoni 7781,39 gektar.

Mingchinor qishlog‘ining umumiy perimetri 44767 metr, umumiy maydoni 6496,55 gektar.

Oqbuloq qishlog‘ining umumiy perimetri 27141 metr, umumiy maydoni 2544,14 gektar.

Buyuk ipak yo‘li qishlog‘ining umumiy perimetri 52991 metr, umumiy maydoni 7440,24 gektar.

Olmazor qishlog‘ining umumiy perimetri 18637 metr ekanligi, umumiy maydoni 1384,55 gektar.

Paxtakor qishlog‘ining umumiy perimetri 36259 metr ekanligi, umumiy maydoni 5080,75 gektar.

Chamanzor qishlog‘ining umumiy perimetri 32539 metr ekanligi, umumiy maydoni 5965,91 gektar.

Paxtakor shaharining umumiy perimetri 12761 metr ekanligi, umumiy maydoni 720,55 gektar ekanligi aniqlandi.

Shundan:

Gulzor shaharchasining umumiy perimetri 9685 metr, umumiy maydoni 296,28 gektarni tashkil etadi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Kadastr agentligi Paxtakor tumani bo‘limi tomonidan taqdim etilgan axborot va ma’lumotlar bo‘yicha bildirilgan taklif va tavsiyalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 48-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risidagi qonunning 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Paxtakor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Kadastr agentligi Paxtakor tuman bo‘limi boshlig‘i I.Berdiqulovning Paxtakor tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan ishchi guruhining 2022-yil 4-noyabrdagi 07-114-sonli yig‘ilish ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Paxtakor tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar to‘g‘risidagi ma’lumot

1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining qarori tuman hokimligining rasmiy web-saytida e’lon qilinsin.

4. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Paxtakor tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashi raisi **A.Ashurov**

Xalq deputatlari Paxtakor tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-44-281-3-52-K/22-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida


T/r	Ma’muriy-hududiy birlik nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Bog‘ishamol qishlog'i	37378	7781.39
2	Mingchinor qishlog'i	44767	6496,55
3	Oqbuloq qishlog'i	27141	2544.14
4	Buyuk ipak yo‘li qishlog'i	52991	7440.24
5	Olmazor qishlog‘i	18637	1384.55
6	Paxtakor qishlog‘i	36259	5080,75
7	Chamanzor qishlog‘i	32539	5965,91
8	Paxtakor shahar	12761	720,55
9	Gulzor shaharchasi	9685	296,28
	Tuman bo‘yicha jami	**272158**	**37710,36**

Xalq deputatlari Paxtakor tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-44-281-3-52-K/22-son qaroriga
2-ilova

Paxtakor tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklarning kartografik chizmasi

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2022 - yil «_____» _____ dagi
_____ - sonli qaroriga
2 - ilova

Jizzax viloyati Paxtakor tumani
shahar, shaharchalar va qishloqlar chegarasining loyihaviy
SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi:

A dan B gacha Do'slik tumani
B dan D gacha Sirdariyo viloyati
D dan E gacha Zarbdor tumani
E dan F gacha Sh. Rashidov tumani
F dan G gacha Zafarobod tumani
G dan A gacha Arnasoy tumani

Shartli belgilar

Tumanlar chegarasi
Viloyatlar chegarasi chegarasi
Shahaharlar va shaharchalar chegarasi
Qishloqlar chegaralari